



"INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2024"

YERKINOY SAITOVA HAYOTI VA IJODI

Termiz ixtisoslashtirilgan san'at maktabi o'qituvchisi

Jamila Qultoyeva

Annotatsiya: "Xoreografiya" bo'limiga o'qishga kirib, 1978- yilda muvoffaqiyatli tamomladi. 1980-yildan boshlab Toshkent Davlat madaniyat institutining "Xoreografiya" kafedrasida "O'zbek raqsi" fanidan talabalarga saboq berib kelgan.

Kalit so'zlar: O'zteleradiokompaniyasi qoshida "Sarvinoz" raqs ansamblini tashkil etdi. Bu ansambl bilan Rossiya, Turkiya, Hindiston, Fransiya, Polsha va Germaniya kabi davlatlarda gastrol safarlarida qatnashib, o'zbek milliy raqs san'atini butun dunyoga namoyish etishda taniqli ustozlar bilan o'z xissasini qo'shdi.

Saitova Yerkinoy Yakubovna 1956-yil 8-oktyabrda Qirg'iziston Respublikasi O'sh viloyatida tug'ilgan. 1971-yildan O'sh shahri S.M Kirov xozirgi (Bobur) nomidagi musiqa drama teatr studiyasida raqs san'atiga ilk qadamini qo'ygan. 1974-Toshkent Davlat madaniyat institutining "Xoreografiya" bo'limiga o'qishga kirib, 1978- yilda muvoffaqiyatli tamomladi. 1980-yildan boshlab Toshkent Davlat madaniyat institutining "Xoreografiya" kafedrasida "O'zbek raqsi" fanidan talabalarga saboq berib kelgan. 1997-yildan Toshkent Davlat milliy raqs va xoreografiya Oliy maktabi "Xoreografiya" kafedrasida "O'zbek raqsi" fanidan talabalarga saboq berib kelmoqda.

1997-yildan buyon katta o'qituvchi lavozimida mehnat qilmoqda.

1980-yildan boshlab Toshkent Davlat madaniyat institutining "Xoreografiya" kafedrasida "O'zbek raqsi" fanidan talabalarga saboq berib kelgan. ko'rsatgan faol baletmeyslrlar qatoriga kiritish mumkin. Ustozning o'z kasbiga mehrining kuchliligi va fidoyiligi yangi ijodiy jamoalarni tashkil etishga ilxom bag'ishlaydi. Ilk ijodiy faoliyatni institutda o'qigan kezlari aviasozlik zavodi qoshidagi "Parvoz" ashula va raqs ansamblining bolalar jamoasi raqs guruhiga rahbarlik qilish bilan boshlagan. Toshkent traktor

zavodi qoshidagi "Nilufar" raqs jamoasiga rahbarlik qilgan.

yilda O'zteleradiokompaniyasi qoshida "Sarvinoz" raqs ansamblini tashkil etdi. Bu ansambl bilan Rossiya, Turkiya, Hindiston, Fransiya, Polsha va Germaniya kabi davlatlarda gastrol safarlarida qatnashib, o'zbek milliy raqs san'atini butun dunyoga namoyish etishda taniqli ustozlar bilan o'z xissasini qo'shdi. Ijodiy jamoalar bilan ustaqillik, Navro'z umumxalq bayramlarida, "Sharq taronalari" xalqaro musiqa festivali, "Buxoroning 2700 yilligi", "AIpomish" dostonining 1000 yilligi kabi ko'plab



"INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2024"

badiiy-ijodiy tanlovlarni, "Umid nihollari", "Barkamol avlod", "Universiada" ommaviy sport tadbirlarining ijodiy qismini tayyorlashda faol qatnashib keladi.

Shogirdlari musiqa va san'at maktablarida, kollej va oliy o'quv yurtlarida o'qituvchi, badiiy jamoalarda baletmeyster lavozimlarida mehnat qilib kelmoqda. Shulardan "Tumor" raqs ansambli baletmeysteri Charos Jo'raboyeva, "Asr" raqs guruhi baletmeysteri Matluba Rustamova, Ichki ishlar vazirligi qoshidagi raqs dastasi baletmeysteri Zumrad Jumaboeva. San'at va madaniyat instituti o'qituvchisi Nasiba Abraykulova, Bekobod san'at kollejida Sayyora Xolmurotova, Qo'qonda Yoqutxon, Madrahimova bosh baletmeyster. Shoir Jo'rayeva Surxondaryo viloyati Mannon Uyg'ur nomli drama teatri bosh baletmeysteri, Shonazar Botirov "Lazgi" davlat ansamblining bosh baletmeysteri, opa-singil Elena va Irina Lyaminalar "Ritm" bolalar raqs jamoasi rahbarlaridir.

Toshkent davlat madaniyat kolleji "Milliy raqs" bo'limining qator o'qituvchilari ham Yerkinoy Saitovaning qo'lida taxsil olishgan. Jumladan:

Shahzoda Xudoynamrova, Nigora Siddiqova va boshqalar.

Yerkinoy Saitova madaniy, ma'naviy yetuk, oilaning g'amxo'r va bekasi sifatida kasbdoshlari, talabalari, shogirdlari va keng jamoatchilik orasida hurmat va e'tiborga ega inson.

Yerkinoy Saitova Toshkent Davlat Milliy raqs va xoreografiya oliy maktabida o'z mehnat faoliyatini davom ettirib kelmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbek musiqa ensiklopediyasi 2000-y.
2. O'zbek raqs san'ati tarixi 2005-y.